

PEDAGOGIK AMALIYOT JARAYONIDA BULAJAK BOSHLANG'ICH TA'LIM UKITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

Madraximova Moxira Imomaliyevna

FarDU mustaqil izlanuvchisi

mohiraxonmadraximova@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada pedagogik amaliyot jarayonida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning dolzarb masalalari yoritilgan. Unda boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy faoliyatga tayyorlanish jarayonida nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg'unlashtirish, metodik ko'nikma va malakalarni shakllantirish hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanishning ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, pedagogik amaliyot davrida talabalarda kasbiy motivatsiya, kommunikativ madaniyat, tashabbuskorlik va mas'uliyat kabi sifatlarni rivojlantirishning asosiy omillari ko'rsatib berilgan. Muallif tomonidan kasbiy kompetentlikni shakllantirishda amaliy mashg'ulotlar, ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish, mentorlik va reflektiv tahlilning o'рни alohida ta'kidlangan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, pedagogik amaliyot nafaqat nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish, balki bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi va ta'lim jarayonini samarali tashkil etish kompetentligini shakllantirishda muhim bosqich sifatida baholanadi.

Kalit so'zlar: Pedagogik amaliyot, kasbiy kompetensiya, boshlang'ich ta'lim, pedagogik mahorat, metodik ko'nikma, kommunikativ kompetensiya, refleksiya, innovatsion metodlar.

ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ПРОЦЕССЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ПРАКТИКИ

Аннотация. В данной статье рассматриваются актуальные вопросы развития профессиональной компетентности будущих учителей начального образования в процессе педагогической практики. Анализируется важность сочетания теоретических знаний с практикой, формирования методических навыков и квалификации, эффективного использования современных педагогических технологий в процессе подготовки учителей начального образования к профессиональной деятельности. Также указываются основные факторы развития таких качеств, как профессиональная мотивация, коммуникативная культура, инициативность и ответственность у студентов в ходе педагогической практики. Автор подчеркивает роль производственной практики, изучения передового педагогического опыта, наставничества и рефлексивного анализа в формировании профессиональной компетентности. По результатам исследования педагогическая практика рассматривается как важный этап в формировании не только навыков

применения теоретических знаний на практике, но и компетентности будущих учителей самостоятельно мыслить, творчески подходить и эффективно организовывать образовательный процесс.

Ключевые слова: Педагогическая практика, профессиональная компетентность, начальное образование, педагогическое мастерство, методические навыки, коммуникативная компетентность, рефлексия, инновационные методы.

FACTORS OF DEVELOPING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE PRIMARY EDUCATION TEACHERS IN THE PROCESS OF PEDAGOGICAL PRACTICE

Annotation. This article discusses the current issues of developing the professional competence of future primary education teachers in the process of pedagogical practice. It analyzes the importance of combining theoretical knowledge with practice, forming methodological skills and qualifications, and effectively using modern pedagogical technologies in the process of preparing primary education teachers for professional activity. It also indicates the main factors for developing such qualities as professional motivation, communicative culture, initiative and responsibility in students during pedagogical practice. The author emphasizes the role of practical training, studying advanced pedagogical experiences, mentoring and reflexive analysis in the formation of professional competence. According to the results of the study, pedagogical practice is considered an important stage in the formation of not only the application of theoretical knowledge in practice, but also the competence of future teachers to independently think, creatively approach and effectively organize the educational process.

Keywords: Pedagogical practice, professional competence, primary education, pedagogical skills, methodological skills, communicative competence, reflection, innovative methods.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning bosh maqsadi zamonaviy bilim, ko'nikma va malakalarga ega, mustaqil fikrlaydigan, tashabbuskor, ijodkor o'qituvchilarni tayyorlashdan iboratdir. Xususan, boshlang'ich ta'lim bosqichi – o'quvchilarning keyingi ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatlari uchun poydevor vazifasini o'taydi. Shu sababli bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish bugungi kun pedagogik nazariya va amaliyotining eng muhim vazifalaridan biri sanaladi.

Kasbiy kompetentlik - bu nafaqat nazariy bilimlarni egallash, balki ulardan amaliy faoliyatda samarali foydalanish, o'quv-tarbiyaviy jarayonni to'g'ri tashkil

etish, kommunikativ madaniyat va kasbiy mas'uliyatni o'zida mujassam etishdir. Shu jihatdan, pedagogik amaliyot bo'lajak o'qituvchilar uchun zaruriy tajriba maktabi bo'lib, ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatini shakllantirishda hal qiluvchi bosqich hisoblanadi.

Pedagogik amaliyot jarayonida talabalar nazariy bilimlarini amaliy mashg'ulotlarda sinovdan o'tkazadilar, ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganadilar, o'quvchilar bilan samarali muloqotga kirishadilar va o'z faoliyatlarini tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Shu orqali ularda kasbiy motivatsiya, tashabbuskorlik, ijodiy yondashuv va refleksiv tahlil qilish qobiliyatlari shakllanadi.

Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, hozirgi globallashuv va raqamli ta'lim sharoitida boshlang'ich ta'lim o'qituvchilaridan faqatgina an'anaviy bilim emas, balki yangicha yondashuv, innovatsion texnologiyalardan foydalanish, ta'lim jarayonini ijodiy tashkil etish ko'nikmalari talab qilinmoqda. Bu esa pedagogik amaliyot jarayonini yanada takomillashtirishni va uni o'qituvchi shaxsini kasbiy shakllantirishning asosiy manbai sifatida qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirish masalasi so'nggi yillarda pedagogik tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida alohida e'tiborga loyiq bo'lib kelmoqda. Xususan, pedagogik amaliyot jarayonining samaradorligi va "Pedagogik mahorat" fanining o'quv dasturlarida tutgan o'rni ko'plab mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan yoritilgan.

O'zbekistonlik olimlar ta'lim jarayonida kasbiy kompetensiyani rivojlantirishni milliy qadriyatlar, ma'naviy-ma'rifiy omillar bilan uyg'unlikda ko'rib chiqadilar. A. Qodirov o'z tadqiqotida pedagogik amaliyotda refleksiya va tahlil usullarini qo'llash talabalar kasbiy mahoratini rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan biri ekanini ta'kidlaydi. Uning fikricha, amaliyot jarayonida o'z faoliyatini baholash, xatolarni ko'ra bilish va ularni bartaraf etish - bo'lajak o'qituvchining mustaqil rivojlanishiga asos yaratadi. N. Ziyamuxamedova pedagogik mahorat fanida interfaol metodlar (munozara, debat, keys-tahlil, rolli o'yinlar)ni qo'llash orqali talabalarning kommunikativ va metodik kompetensiyalarini

rivojlantirish mumkinligini ko'rsatadi. Unga ko'ra, o'qituvchining kasbiy qiyofasi dars jarayonida pedagogik texnologiyalardan qanchalik samarali foydalana olishiga bog'liq. D. Karimova esa boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida ijodiy yondashuv, tashkiliy mahorat va shaxsiy motivatsiya kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismlaridan biri ekanini ilmiy jihatdan asoslab beradi. U amaliyot davomida kreativ topshiriqlar, muammoli vaziyatlarni hal etish metodlari samaradorligini ta'kidlaydi. M. Jo'rayev o'z tadqiqotida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali talabalarda kasbiy faoliyatga tayyorgarlikni kuchaytirish masalasini o'rgangan. Uning fikricha, raqamli texnologiyalarni amaliyotga kiritish o'qituvchining zamonaviy kasbiy kompetensiyasini shakllantiradi. S.Xolmatova kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishni ta'lim jarayonining markaziy yo'nalishi sifatida ko'rib chiqadi. U o'qituvchi shaxsining muloqot madaniyati, psixologik yondashuvi va o'quvchilar bilan hamkorlikda ishlash ko'nikmalari boshlang'ich ta'lim samaradorligiga bevosita ta'sir qilishini ta'kidlaydi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot davomida quyidagi asosiy natijalar kuzatildi: Pedagogik amaliyot jarayonida talabalarda dars rejasini tuzish, metodlarni tanlash va sinfga moslashtirish ko'nikmalari rivojlandi. "Pedagogik mahorat" fanida o'tkazilgan interfaol metodlar (munozara, klaster, keys-tahlil, rolli o'yinlar) asosida mashg'ulotlar talabalar kreativligini oshirdi. So'rovnoma natijalariga ko'ra, talabalar o'zlarining kommunikativ kompetensiyasi (o'quvchi bilan muloqot, ota-onalar bilan ishlash)da sezilarli o'sish borligini bildirishdi. Eksperiment natijalari shuni ko'rsatdiki, amaliyot davomida "Pedagogik mahorat" fanida o'zlashtirilgan metodik ko'nikmalarni qo'llagan talabalar dars samaradorligini 15–20% ga yuqori natija bilan ta'minladi. Statistik tahlil asosida, tajriba guruhi talabalarining kasbiy kompetensiya rivojlanish darajasi nazorat guruhiga nisbatan ancha yuqori bo'ldi.

1-jadval. Talabalarning kasbiy kompetensiya darajalari (tajriba va nazorat guruhlari bo'yicha)

Kompetensiya turlari	Boshlang'ich daraja (%)	Yakuniy daraja (%) – Nazorat guruhi	Yakuniy daraja (%) – Tajriba guruhi	O'sish (%) – Tajriba guruhi
Metodik kompetensiya	42	56	74	+32
Kommunikativ kompetensiya	47	60	78	+31
Tashkiliy kompetensiya	39	54	72	+33
Ijodiy kompetensiya	35	50	70	35

So'rovnoma natijalariga ko'ra:

- 68% talabalar pedagogik amaliyot jarayonida darsni mustaqil tashkil etishda ko'proq ishonch hosil qilganini bildirdi.
- 72% talabalar "Pedagogik mahorat" fanida o'rganilgan keys-stadi va rolli o'yin metodlari amaliyotda samarali natija berganini qayd etdi.
- 80% talabalar esa o'quvchilar bilan kommunikatsiyada o'zlarini yanada erkin sezganini ta'kidladilar.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda pedagogik amaliyot jarayoni bevosita hal qiluvchi omil hisoblanadi. Pedagogik amaliyot - bu faqat dars berish emas, balki ta'lim jarayonini tashkil etish, nazorat qilish, natijalarni tahlil qilish, muammoli vaziyatlarni yechish kabi murakkab kompetensiyalarni shakllantiruvchi jarayondir. Ilgari o'tkazilgan tadqiqotlar (masalan, N. Ziyamuxamedova, Sh. Ibragimov va boshqalar) ham shuni tasdiqlaydiki, kasbiy kompetensiya nazariy bilimlar asosidagina rivojlanmaydi, balki real pedagogik faoliyatda tajriba orttirish orqali mukammallashadi. "Pedagogik mahorat" fani talabalarning analitik fikrlash, kommunikativ madaniyat, ijodkorlik kabi kompetensiyalarini rivojlantirishda asosiy fanlardan biridir. Amaliyot jarayonida talabalarning dars jarayonida

moslashuvchanlik, pedagogik refleksiya va tashabbuskorlik kabi kasbiy sifatlari shakllandi. Shu bilan birga, ayrim kamchiliklar ham aniqlandi: ba'zi talabalar vaqtni to'g'ri taqsimlashda, sinfda intizomni boshqarishda, innovatsion texnologiyalardan foydalanishda qiynalishdi. Bu esa kelgusida metodik ko'makni kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, "Pedagogik mahorat" fanida qo'llanilgan metodik yondashuvlar bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini sezilarli darajada oshirdi. Bu jarayon O'zbekiston tajribasida ham isbotlangan: A. Qodirov (2020) o'z tadqiqotida pedagogik amaliyot davomida refleksiya asosida dars tahlili talabalar mahoratini rivojlantirishning samarali usuli ekanini ko'rsatgan. N. Ziyamuxamedova (2021) esa interfaol metodlar va innovatsion texnologiyalarni amaliyot bilan uyg'unlashtirish talabalar kreativligini kuchaytirishini ta'kidlagan. D. Karimova (2022) o'qituvchi shaxsida **ijodiy** yondashuv va kommunikativ madaniyatni rivojlantirish pedagogik amaliyot samaradorligini oshirishini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Shuningdek, ayrim cheklovlar ham aniqlandi: ba'zi talabalar dars jarayonida vaqtni to'g'ri boshqarishda qiynaldi, zamonaviy raqamli vositalardan foydalanishda to'liq ko'nikmaga ega emasligi kuzatildi.

XULOSA

Yuqoridagi tadqiqotlar va amaliy kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, pedagogik amaliyot jarayoni bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ayniqsa, "Pedagogik mahorat" fanida nazariy bilimlarning amaliy faoliyat bilan uyg'unlashuvi talabalarda mustaqil fikrlash, muloqot qilish, metodik yondashuvni tanlash, dars jarayonida turli pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

O'zbekiston olimlari olib borgan tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, talabalarning kasbiy kompetensiyasi: bilim, ko'nikma va malakalarni egallash, pedagogik refleksiyani shakllantirish, innovatsion texnologiyalardan foydalanish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish jarayonida rivojlanadi.

Shuningdek, xorijiy tajribalar ko'rsatadiki, bo'lajak o'qituvchining kasbiy yetukligi faqat nazariy bilimlar emas, balki real vaziyatlarda pedagogik qaror qabul qilish, shaxsiy sifatlarni rivojlantirish va reflektiv faoliyat olib borishga ham bevosita

bog'liqdir. Demak, pedagogik amaliyotni samarali tashkil etish va "Pedagogik mahorat" fanini mazmunan boyitish orqali bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga erishish mumkin. Bu esa nafaqat ta'lim sifatini yuksaltiradi, balki kelajak avlod tarbiyasida ham katta ijobiy natijalarga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ziyamuxamedova N. "Pedagogik mahorat" fani bo'yicha metodik qo'llanma. – Toshkent, 2021.
2. Ibragimov Sh. Pedagogik amaliyotda talabalarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish yo'llari. – Namangan, 2022.
3. Qodirov A. *Pedagogik amaliyotda refleksiya asosida o'quv jarayonini tahlil qilish metodikasi*. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020.
4. Ziyamuxamedova N. *Pedagogik mahorat fanidan metodik qo'llanma*. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2021.
5. Karimova D. *Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda ijodiy yondashuv*. – Namangan: NDPI, 2022.
6. Jo'rayev M. *Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish metodlari*. – Samarqand: SamDU, 2021.
7. Xolmatova S. *Kasbiy ta'lim jarayonida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish*. – Farg'ona: FDU, 2022.